

ZAMONAVIY BANKLARDA TO'LOV TIZIMINING INNOVATSION YECHIMLARI

Jakbarov odiljon Ikromjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Odiljonjakbarov157@gmail.com

Annotatsiya: Banklarda to'lov tizimining innovatsion yechimlari mijozlarga tezroq, xavfsizroq va qulayroq xizmatlar ko'rsatish uchun foydalaniladigan texnologiyalar va jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu innovatsiyalar mobil to'lovlar, internet-banking, NFC texnologiyasi, biometrik autentifikatsiya va blokcheyn texnologiyasi kabi sohalarda tajriba beradi. Ushbu texnologiyalar tufayli bank mijozlari yanada moslashuvchan va xavfsiz to'lov jarayonini boshdan kechirishlari, o'z to'lovlari va boshqa bank operatsiyalarini bankka borib, navbatda turmasdan amalga oshirishlari mumkin. Bu ularga yanada qulay xarid qilish tajribasini beradi.

Kalit so'zlar: Mobil to'lovlar, Internet-banking, NFC texnologiyasi, Sun'iy intellect, Chatbotlar, Biometrik autentifikatsiya va Blokcheyn texnologiyasi.

Kirish: Hozirgi kunda har bir davlat o'z hududidagi banklar barqarorligiga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichida bank kapitalini boshqarishning samaradorligi masalasi o'zgacha ma'no kasb etadi. Moliyaviy institut sifatida bank faoliyati likvidlilik holatini saqlab, risklarni kamaytirib depozit qo'yilma egalari va aksionerlarning huquqlarini saqlagan holda yuqori daromad olishga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992son Farmoniga muvofiq 2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020-2025-yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo'nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash yo'llarini belgilaydi. Strategiyaning maqsadi zamonaviy bank tizimini shakllantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini

oshirish va bank xizmatlarining yangi standartlarini joriy etishga qaratilgan bank tizimida kompleks o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat [1]. Bank to'lov tizimlaridagi innovatsiyalar bank faoliyatining yangi usullari yuzini tubdan o'zgartirmoqda bank faoliyati va uning mijozlarga ta'siri. Ushbu innovatsion tashabbus zamirida umumiy tushuncha yotadi. Raqamli jamiyatning asosiy vositalariga kirishni ta'minlash eng muhim sarmoyalardan biridir bank dunyosi kelajak uchun xizmat qiladi. Shunday qilib, innovatsiyalarning ahamiyati texnologiyalarda emas, Ammo imkoniyatlarga ko'ra ular ob'ektlar, bilimlar, ma'lumotlar, kommunikatsiyalar va boshqalarga kirish uchun ochiladi Hozirgi iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro ta'sirda tobora ortib borayotgan muhim elementlar, Demak, innovatsion bank amaliyotlari jadallik bilan rivojlanishni rejalashtirish va siyosatni ishlab chiqishda markaziy o'rinni egallaydi bank sohasida hayot sohalari. Bank to'lov tizimlaridagi innovatsiyalar, xususan, elektron to'lov tizimlari va unga bog'liq bo'lgan yangi bank usullari an'anaviy usullarni qo'llab-quvvatlash uchun ishlab chiqilmoqda. Naqd to'lovlar cheklar va boshqa qog'oz kreditlari asosan an'anaviy usul edi. Hozirda innovatsion to'lov tizimlari quyidagi sohalarda innovatsiyalarni taqdim etadi.

1. Mobil va raqamli banking: Banklar o'z mijozlariga mobil ilovalar va internet-banking orqali tez va oson operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadilar. Shunday qilib, mijozlar o'z hisoblarini tekshirishlari, pul yuborishlari, to'lovlarini to'lashlari va boshqa ko'plab moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Mobil bankning yordamida mijoz quyidagi imkoniyatlarga ega[2]:

- bank kartalarining (kredit, debet va hokazo) holatini kuzatish;
- mobil va shahar telefon xizmatlari, internet-provayderlar, kommunal, kabel va raqamli televidenie xizmatlari uchun vositachilik haqlarisiz to'lovlarni amalga oshirish;
- onlayn konversiya amaliyotlarni o'tkazish;

- kartadan kartaga o'tkazmalarni amalga oshirish;
- operatsiyalarning avtomatik ijrosini sozlash – hisobvaraqlar bo'yicha yoki muayyan sanalarda belgilangan to'lovlar;
- pul mablag'larining bank hisobvarag'iga tushganligi haqida ma'lumot olish;
- bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma'lumotnoma olish;
- onlayn-do'konlarda haridlarni amalga oshirish;
- kreditlarni so'ndirish, omonatlarga mablag' qo'shish;
- kredit olish;
- pul o'tkazmasini olish/yuborish;
- YHXBB jarimalarini to'lash;
- bank kartasini ochish;
- bank kartasini bloklash va blokdan yechish;
- bank kartasiga omonat bo'yicha foizlarni kirim qilish;
- bank kartasining amal qilish muddatini uzaytirish;
- mobil ilova orqali turli valyutalarda xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish.



2.

3. Kontaktsiz to'lovlar: NFC texnologiyasi tufayli bank kartalari kontaktsiz to'lov funksiyasiga ega. Shunday qilib, siz kartangizni POS-terminalga yoki boshqa to'lov punktiga tegizish orqali tez va xavfsiz to'lovni amalga oshirishingiz mumkin. Kontaktsiz kartani do'kondagi kassirga, restoranda esa ofitsiantga berishni xojati yo'q. To'lovlar tez va qulay bajariladi. Begona shaxslar kartaning ma'lumotlarini bila olmaydi. Kartaning yana bir afzalligi bu xizmat

muddatining uzoqroq ekanligidir, chunki kartani to'lov terminal bilan kontaktli ravishda ishlatish talab etilmaydi – xamda kartani xar doim hamyondan chiqarish va qo'lga olish zarur emas[3].

4. Mobil hamyonlar: Ko'pgina banklar mobil hamyonlar orqali telefoningizdan to'lovlarni amalga oshirishga imkon beradi. Masalan, Apple Pay, Google Pay va Samsung Pay kabi ilovalar yordamida bank kartangizni telefoningizga qo'shishingiz hamda bozorlar, restoranlar va boshqa to'lov nuqtalarida telefoningiz yordamida to'lovlarni amalga oshirishingiz mumkin.
5. Avtomatik to'lovlarni tartibga solish: Banklar mijozlarga avtomatik ravishda muntazam to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi xususiyatlarni taklif etadi. Shu tariqa mijozlar kredit karta hisobi, kredit bo'yicha to'lovlar va obuna to'lovlari kabi muntazam to'lovlarini unutmaydi va o'z vaqtida amalga oshiradi.
6. Sun'iy intellekt va chatbotlar: Banklar mijozlarga xizmat ko'rsatishda sun'iy intellekt tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan chatbotlardan foydalangan holda mijozlarga 24/7 xizmat ko'rsatadi. Ushbu chatbotlar mijozlarning savollariga javob berishi, hisob ma'lumotlarini taqdim etishi va hattoki ba'zi moliyaviy operatsiyalarni bajarishi mumkin.
7. Blokcheyn texnologiyasi: Ba'zi banklar pul o'tkazmalarini tezlashtirish va xavfsiz qilish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanadilar. Blokcheyn markazlashtirilmagan tuzilishga ega bo'lgani uchun tranzaksiyalar xavfsizligini ta'minlaydi va vositachilarni yo'q qiladi.
8. Biometrik autentifikatsiya: Ba'zi banklar foydalanuvchilarga barmoq izlari skaneri, yuzni aniqlash tizimlari yoki ovozni aniqlash tizimlari kabi biometrik autentifikatsiya texnologiyalari orqali o'z hisoblariga kirishga ruxsat beradi. Bu mijozlarga o'z hisoblarini xavfsizroq boshqarish imkonini beradi.

Ushbu misollar banklarda qo'llaniladigan ba'zi innovatsion xususiyatlardir. Biroq, banklar doimiy ravishda yangi texnologiyalar va ishlanmalarni kuzatib boradilar va mijozlar tajribasini yaxshilash uchun turli xil yangiliklarni kiritadilar.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining joriy etilishi mamlakatimiz bank xizmatlari bozori kengayishiga sharoit yaratmoqda. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan sari tijorat banklari ham chakana operatsiyalar, mijozlarga taqdim etadigan xizmatlar turlarini oshirish orqali o'z faoliyatini diversifikatsiya qila bormoqdalar. Masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni bankomat va infokiosklarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Foydalanishi sodda bo'lgan ushbu uskunalarda bugungi kunda mijoz va kassir o'rtasidagi an'anaviy muomalaga chek qo'yib, o'ziga xos minibank-ofis vazifasini o'tamoqda. Hozirgi paytda bankomatlardan nafaqat naqd pul echib olish, balki ular orqali tovar va xizmatlar bo'yicha turli to'lovlarni amalga oshirish mumkin. Shuni qayd etish o'rinliki, mijozlar istalgan bank bankomat va infokiosklaridan foydalana oladilar. Ayni paytda respublikamiz bo'yicha "Smart-Vista" on-line va "DUET" tizimidagi kartochkalarga xizmat ko'rsatadigan bankomat va infokiosklar soni 1466 tani tashkil etib, ular yagona tarmoqqa ulangan. Bugungi kunda respublikamizda muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 9,7 mln. donani tashkil etmoqda. Plastik kartochkalar soni ko'payishiga mos ravishda terminallar soni ham oshib bormoqda. Aholi gavjum bo'lgan joylar va savdo do'konlari, xizmat ko'rsatish ob'ektlariga o'rnatilgan terminallar soni shu yil boshiga kelib salkam 116 mingtani tashkil etdi. Plastik kartochkalar yordamida amalga oshirilayotgan operatsiyalar turi va soni ham sezilarli darajada o'sib bormoqda. O'tgan yili plastik kartochkalar vositasida salkam 8,7 trln. so'm hajmida har xil naqd pulsiz to'lovlar o'tkazildi yoki ushbu ko'rsatkichning yil davomida 50 foiz o'sishi ta'minlandi. Naqd pulsiz to'lovlar hajmining o'sish dinamikasi birinchi navbatda, tovar va xizmatlar uchun to'lovlarning bankomatlar orqali amalga oshirilishi, plastik kartalar vositasida ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lami va infrastrukturasi kengayishi bilan chambarchas bog'liqdir. To'lovlarni naqd pulsiz amalga oshirishning innovatsion shakllariga bo'lgan ehtiyoj muttasil ortib bormoqda. Tadbirkorlik sub'ektlari va aholi tejamli, kam vaqt va harakat sarflagan, yuqori axborot texnologiyalaridan foydalangan holda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, ma'lumot olishga

ko'proq ishtiyok bildirmoqda. Mana shu ehtiyojni inobatga olib, tijorat banklari masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish ko'lamini kengaytirishga, bunda global Internet tarmog'i imkoniyatlaridan samarali foydalanish choralarini ko'rib bormoqdalar. Aytib o'tish o'rinliki, ayni yo'nalish jahon bank tizimi va uning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan milliy bank tizimining ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayni paytda barcha tijorat banklari Internet tarmog'ida o'zlarining web-saytlarini ochib, ular bank faoliyati, yangi xizmat turlari va shartlari, mijozlar manfaatiga tegishli ma'lumotlar bilan muntazam boyitib borilmoqda. Markaziy bank veb-sayti orqali esa davlat interaktiv xizmatlari ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Aholi o'rtasida mobil telefonlardan foydalanishning kengayib borishi banklar tomonidan mobil-banking (wap-banking) va sms-banking xizmatlari yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Hozirgi paytda 107 mingta mijoz ayni xizmat turlaridan foydalanmoqda. Aytish o'rinliki, shu yilning birinchi choragida banklarning ayni xizmat turlaridan foydalanuvchilar soni 50 foiz o'sishiga erishildi. Ma'lumot uchun aytib o'tamiz, hozirgi kunda "Uz-Paynet" to'lov agentligi tarmog'i orqali bir kunda o'rtacha 2,5-3 mln. tranzaksiyalar o'tkazilmoqda. Shuningdek, 2011 yilda o'z faoliyatini boshlagan "SMS-TO'LOV" chakana to'lov tizimi orqali 20 dan ortiq to'lovlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tizimga tijorat banklari to'lov tizimi a'zosi sifatida ulangan[4].

Xulosa: Yuqorida keltirilgan banklarda yangi innovatsion texnologiyalar inson omilini yengillashtirib kelmoqda. Shuningdek bizga yangi texnologiyalarni jalb qiladi va jahon miqyosidagi texnologiyalardan foydalanishimizga imkoniyatlar beradi.

Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar asrida yashayotga ekanmiz zamon bilan hamnafas bo'lishimiz kerak chunki hozirda biz uchun eng muhim narsa bu vaqt. Vaqt topilmas bebaho nematdir bu nematni ahamiyatsiz ishlarga sarflab bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992son Farmoni
2. <https://finlit.uz/uz/articles/payments-and-transfers/mobile-bank/>
3. <https://humocard.uz/uz/>
4. <https://bank.uz/uz/news/zamonaviy-texnologiyalar-bank-biznesining-yangi-ufqlarini-ochmoqda6546>